

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI; QAHRAMONLAR VA ULARNING TASVIRIY TALQINI

Xamitov Elshod
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI
II-kurs magistratura talabasi

Telefilm va kinoning tasviriyl yechimi yo'nalishi yordamida ma'lum bir asarni ekranlashtirish ortida rassomning katta mehnati yotadi. Maqsad qilingan asarning qahramonlari xarakteri va munosabatlarini o'rganish va shu orqali ularning tasviriyl talqinini aks ettirish bu boradagi dastlabgi ish sanaladi.

Qahramonlarning insoniyl munosabatlari va xarakter xususiyatini to'la ochib berish va tasvirdagi realligini ta'minlash bugungi kunda telefilm va kinoning tasviriyl yechimi oldida turgan aktual mavzulardan birdir.

O'zbek kino va telefilmning tasviriyl yechimi yo'nalishida oliyljanoblik, mardlik, vatanparvarlik, adolat tarannumiga bag'ishlab ishlangan asarlar kam emas.

Bu borada tarixiyl-qahramonlik mavzularini aks ettirgan “Alisher Navoiyl”, “Amir Temur”, “Alpomish”, “Pari momo”, “Sen yetim emassan” kabi badiiyl filmlar yuqori saviyadagi asarlar sirasiga kiradi. Ushbu kartinalarni yuqori darajaga olib chiqishda I. Gulenko, A. Slagin, B.Chelli, V.Sremyan, V.Sinechenko, E.Kalantarov, S.Ziyomuxammedov, N.Rahimboev, B.Nazarov, S.Alibekovsingari postanovkachi rassomlarning o'rni beqiyosdir.Ular o'ziga xos uslublari va professional yondashuvlari orqali filmlardagi deyarli har bir kadrda personaj va holatlarni yaxshi ochib bera olishgan. Yuqoridagi filmlarda kinorassomlar o'z mahoratini namoyish qilib badiiyl lavhalar orqali dekoratsiyalar, tashqi manzaralar va fondan ko'ra personajlarning his-tuyg'ularini filmda yaqqol ko'rsatishga harakat qilganlar. Ular tomonidan yaratilgan har bir kartina, nafaqat rassom ijodini balki ularning yuksak, insoniyl tarjimai holini hikoya etuvchi omilga aylanib boradi¹.

¹Aminov H. R. Kino kompozitsiyasi. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017 y. 10-b

Bugungi kunda o'zbek xalqining iftixori, g'azal mulkinining sultoni Mir Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini ekranlashtirish va unda qahramonlarning shaxsiyatini, insoniy munosabatlari, ichki kechinmalari, ziddiyatlarini ochib berish kino va filmning tasviriy yechimi ijodkorlarining oldida turgan vazifalardandir. Jahon klassik adabiyoti durdonalaridan hisoblangan ushbu asar o'zining chuqur falsafiy tili, go'zal dialoglari, ziddiyatlar va o'ziga xos yechimlari, fazoviy ko'lami, fantastik lavhalari bilan o'ziga xos xarakterga ega. Adolat, bag'rikenglik, rahm-shavqat, hurmat va e'tirof, donolik, komillik kabi tushunchalar ushbu asarning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Asardagi bu xususiyatlar asosan bosh qahramon vositasida aniq tasvirlab beriladi. Asardagi har bir holat va detallar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir voqea ikkinchisini to'ldirib, boyitib keladi.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asari voqealari dono va odil shoh Iskandarning atrofida sodir bo'ladi va har bir syujet u bilan chambarchas bog'liqdir.

Asar bosh qahramoni Rumlik Iskandarning dastlabgi tasviri o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshlardagi yigitdir. U jismonan baquvvat, yuzlari sermulohaza, jiddiy, nigohiga ko'pchilik dosh bera olmaydigan darajada salobatli va o'z navbatida oqko'ngil shoh hamdir.

Navoiy yaratgan qahramon o'zining asosiy qiyofasi, yetakchi fazilatlari, xususan, insonparvarligi, sulhparvarligi, elsevarligi, ilmsevarligi, donishmandligi bilan Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar dostonlaridagi Iskandarga yaqin tursa ham, haqiqatparvarligi, adolatpeshaligi, ilmga qiziquvchanligi, amaliy-ilmiy tadqiqotlardagi ishtiroki bilan, ayniqsa ilmiy-fantastik g'oyalari, obrazlariga ishtiyoqi, xususan, olam dengizlarini tadqiq etish va o'lchash sohasidagi, suv osti hayotini o'rganishga bo'lgan amaliy qiziqishi bilan ajralib turadi. Garchi Iskandar asar boshida o'z oldiga butun jahonni egallash maqsadini qo'ygan bo'lsa-da, doston davomida uning bu fikri o'zgarib takomillashib boradi.

Asar muqaddimasi Iskandarning otasi Faylaqusning vafoti va yosh shahzodaning xalq bilan mashvarat qilib, so'ng taxtga o'tirish kadrlaridan

boshlanadi. U podshohligining dastlabki davrlaridanoq xalq ichida bo'lib, adolat, toshu tarozi, bozor, o'lchov kabi narsalarni o'z qo'li bilan tartibga solishi, shaharu qishloqlarni obod qilishi rassom uchun e'tiborli holatdir.²

Undan so'ng Iskandar boshchiligidagi rumliklarning turli davlatlarga qilgan yurishlari, qo'shin bilan safar, askarlar va jang sahnalariga navbat yetadi.

Asarning yana bir e'tiborli voqeasi Eron shohi Doro bilan urushdan oldin Iskandarning oldiga fors elchisining kelishi sahnasidir. Shoh Iskandar o'zining ulug'vor taxtida salobat bilan o'tiribdi. Qarshisida tiz cho'kib, boshini egib turgan Doroning elchisi. Uning bir qo'lida kunjut solingan idish, ikkinchisida esa to'p va chavgon tutgan. Nigohlarida qo'rquv va tashvish aks etgan. Bu yerda elchining qo'rquvi bir tomondan shoh Iskandarning haybati bo'lsa, ikkinchi tomondan unga olib kelgan xabari sababidandir.

Keyingi sahnada Iskandarning rad javobini olib qaytgan o'sha elchi shoh Doro qarshisida tiz cho'kib turibdi. Iskandarning javobini eshitgan ellik besh yoshlardagi, yirik jussali, qalin, uzun, qora soch-soqolli, boshida baland oltin toji egnida zarbof libosi bo'lgan Doroning qosh-ko'zlari chimirilgan, mushtlari tugilib, yuzlari g'azabdan burishgan holatda tasvirlanadi³.

Undan keyingi kadrda Fors shohi Doro o'z qo'shinini jangga tayyorlash oldidan o'ziga bo'ysunadigan turli yurtlardan kelgan vassallar va ular olib kelgan qo'shinni ko'zdan kechirmoqda. Keng dala.Hukmdor oldi ochiq ayvonli chodirda taxtda o'tiribdi.Atrofini mulozimlar qurshagan. Qarshisida Xitoy, Hind, Misr, Dasht, Shirvon kabi turli yurtlardan kelgan Doroga bo'ysunuvchi turli liboslardagi, ko'plab mahalliy hukmdorlar ta'zimda turishibdi. Ularning yon atrofida fors shohiga olib kelgan sovg'alari.Ularning ortida esa turli yurtlardan kelgan, turli jang kiyimlari, sovutlar, turli qurollari bilan qurollangan qo'shinlar saf tortgan.

Navbatdagi sahna.Iskandar jang libosida, boshida dubulg'a, qurol yarog'li. U uzoqroqdagi qo'shinlar fonida, yolg'iz, o'ychan qiyofada, askarlardan alohida

² A.Navoiy. "Saddi Iskandariy" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2009 y. 7 b.

³A.Navoiy. "Saddi Iskandariy" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2009 y. 105 b.

turgan holatda tasvirlanadi. Uning oldida bir-biri bilan urushayotgan ikki kabutar, kabutarlarning birini osmondan uchib kelgan burgut changaliga olgan.

Navbatdagi sahnada bepoyon tekislik. Ikki tomondan bir-biriga qarama-qarshi otliq-piyoda ikki qo'shin. Bir tomonda ikkinchisidan kamroq, ikkinchi tomonda esa oxiri ko'rinmaydigan darajadagi yirik qo'shin tasvirlanadi.

Yirik planda ikki otliq jangchining jang tasviri. Birining egnida oq, yengil to'n, bir qo'lida nayza, boshqasida qalqon. Ikkinchi siphoning otiga temir sovut yopilgan, qo'lida nayza. U yirik jussali. Ikkala jangchi ham shiddat bilan, bir-biriga yaqin holatda jang qilmoqda. Yuz-ko'zlarida hayot-mamot jangi ifodasi aks etgan. Jangchilarning orqa fonida yirik qo'shin tasvirlanadi.⁴

Navbatdagi sahnada fors shohi Doroning o'lim oldi holati tasvirlanadi. Iskandarning yuz ifodasi tashvishli. U cho'kkalab o'tigan holatda Doroning boshini tizzasiga qo'yib turibidi. Doro qattiq jarohatlanagan. Atrofda fors qo'shini.

Keyingi kadrda fors taxtiga o'tigan, yuzlarida quvonch alomati bo'lgan g'olib shoh Iskandar aks etgan. Boshida avval Doroda bo'lgan toj. Egnida zarhal liboslar. Yonidagi taxtda malikalarga xos libos va toj kiygan o'n yettti yoshlardagi Doroning qizi Ravshanak boshini xiyol egib turgan holda o'tiribdi. Uning yuzlarida horg'inlik alomatlari ko'zga tashlanadi.

Undan keyingi sahnada Iskandar boshchiligidagi qo'shinining Kashmirdagi Mallu qal'asining qamal qilinishi tasvirlanadi. Qal'a atrofida shiddatli jang bormoqda. Bir tomonda jangovar fillar va fillardek yasantirilgan otlarga egalik qilib turgan hind askarlari, ikkinchi tomonda sovutli otlarda Iskandar jangchilari urush qilishmoqda. Qal'adan tutun ko'tarilmoqda. Osmon qoramtir tutun va bulut bilan o'ralagan.

Navbatdagi sahnada yaxshi qurollangan chin Xoqoni lashkari bilan Iskandar qo'shining jangi, undan so'ng cho'lda gavdasi it kattaligidagi chumoliga o'xshash jonzorlar bilan, so'ng zarjirband qilingan, yuzlari qora, ko'zi yashil, soqoli sariq, peshonasidan shox o'sib chiqqan, ustilariga kiyik, qulon terilari charmidan libos

⁴A.Navoiy. "Saddi Iskandariy" T.; "SHARQ" 2009 y. 136 b

kiygan, qo'llarida daraxt tanasidek yo'g'on, uchiga temir tikanlar qoplangan gurzilar tutgan minglab devsfatlar bilan bo'lgan jang manzaralari aks etadi.

So'ngra atrofi tog'lar bilan o'ralgan bir darada jussasi katta-kichik, sochlari yoyigan, quloqlari ikki yondan chiqib yopishib qolgan, ranglari sariq, ko'zlari maymunlarnikidek, tillari uzun, tillari bilan burunlari ichini tozalaydigan, og'zidan ikkita tong'iznikidek tish o'sib chiqqan, quymichlari osilgan, nihoyatda ko'p sonli badbashara odamsimon maxluqlar-ya'juj-ma'jujlar tasvirlanadi⁵.

Keyingi tasvirlarda ko'p sonli Iskandar askarlari va ustalarning ikki tog' orasidagi darani toshlar, yog'ochlar, temir yordamida devor qurib berkitayotgan holati aks etgan. Devorning turli tomonlaridan bosqonlar bosilib, metal eritib devor yuzasiga quyilmoqda. Devorning bir tarafida chuqur xandaq qazilgan.

Bu o'rinda rassomning asosiy vazifasi holatni borliqqa ko'chirishni ta'minlashdir. Kino san'atida filmni suratga olish jarayonida shunday kadrlar bo'ladiki, ular o'tmishdagi me'moriy inshootlar ko'rinishi yoki yaqin kelajakda qurilishi lozim bo'lgan binolar bo'lishi mumkin. Shunday paytlarda ushbu kadrlar uchun maketlar tayyorlanadi va film ana shu maketlar yordamida suratga olinadi.⁶ "Saddi Iskandariy" asaridagi voqealarga bog'liq bo'lgan qamal qilinayotgan qal'alar, qurilayotgan va qurilishi yakunlangan temir devor, kemalar kabi lavhalar asosan ana shunday maketlar orqali amalga oshiriladi.

Undan keyingi sahnada Iskandar katta kema quyrug'ida tik turgan holatda hech narsaga e'tiborsiz, o'ychan, dengizning uzoq tomoniga qarab turibdi. Kemaning har yerida dengizchilar har qaysisi bir qancha yumushlar bilan band. Dengizda atrofda bundan tashqari yuzlab katta kemalar suzib bormoqda.

So'nggi kadrda Iskandar vafoti aks ettiriladi. U egnida oq shohi to'n, dashtda chalqancha yotgan holatda, yuzlari oqargan. Uning atrofida saroy a'yonlari, qayg'udan boshlarini egib turishibdi. Iskandarning tanasini oq libos kiygan onasi

⁵A.Navoiy. "Saddi Iskandariy" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2009 y. 64 b

⁶Aminov.H.R. Filmning tasviriy yechimi.T.:Chashma print. 2010. 46 b.

bag'riga osib turibdi. Atrofda qattiq shamol esmoqda, havo bulutli. Motamsaro kayfiyat tasvirlangan⁷.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" asari bilan voqealarni yagona qahramon atrofiga birlashtirdi. Har qanday holatni uning foydasiga hal qilib berdi, kichik bo'lsada aybu- nuqsonlarini ochib ko'rsatmadi. Uni haqiqiy adolatli va oqil shoh, dovyurak va tadbirkor sarkarda, o'ta zehnli va bilimli olim, mehribon rahbar va himoyachi bo'lgan ideal personaj sifatida gavdlantirdi. Uning xarakteri orqali shon-shuxrat, mansab, mol-dunyo, hattoki go'zallik ham o'tkinchi ekanligini, yaxshilik, adolat, bilim va yuksak axloqiy fazilatlar boqiy qolishi g'oyasini yuksak o'ringa qo'ydi va to'la tasvirladi.

Rassom tomoshabinga Navoiy ko'zi bilan ochko'zlik, amalparastlik, hukmdorlikni sevish, kibr kabi illatlarni Doro kabilar misolida, sabr, mardlik va mehnat kabi tushunchalarni jang sahnalari, chumolisimonlar, ya'juj-majuj, devlar, dengiz sayohati kabi mashaqqatli sinovli lavhalarda aks ettiradi. Insonning yuksak axloqiy sifatleri oxir oqibat uni albatta kamolotga yetkazishini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, rassom tomoshabinga ushbu asarni ishlash jarayonida ko'proq tarixiy siymolarni aks ettirishga urg'u beradi, ularning yuz ifodalari, keskin gavda plastikasiga mahorat bilan yondashadi. Ko'plab ommaviy sahnalarda katta-katta guruhlarni tasvirlaydi. Shuningdek, bir qancha mifologik va fantastik obrazlar, narsalar, joylar va holatlarga ham ahamiyat qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Navoiy. A. "Saddi Iskandariy" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2009 y.
2. Navoiy A. "Saddi Iskandariy" T.; "SHARQ" 2009 y.
3. Aminov. H.R. Filmning tasviriy yechimi. T.: "Chashma print" 2010 y.
4. Navoiy. A. "Hamsa" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2015 y.
5. Aminov H. R. Kino kompozitsiyasi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017 y.

⁷A.Navoiy. "Saddi Iskandariy" T.; "YANGI ASR AVLADI" 2009 y. 77 b